
Qo'shtepa tumani hokimi, 1-sektor rahbarining 2019-yil 20-iyul kuni "Qayrag'och" mahalla fuqarolar yig'inida navbatdagi sayyor qabuli bo'lib o'tdi.

Bir so'z bilan aytganda, adolat va qonuniylik – xalq va mamlakat xotirjamligining asosi. Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan asosiy maqsad jamiyatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Bunday sayyor qabullar va ochiq muloqotlar har bir narsani o'z nomi bilan aytish – haqni nohaqdan, oq va qorani ajratishda, fuqarolarning murojaatlarini qisqa muddatda sinchiklab ko'rib chiqib, hal etishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Zotan, har bir murojaat o'zaro muloqotga, muloqot esa qizg'in muhokamaga yo'l ochadi, bu jamiyatimizda adolat barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Qo'shtepa tumani hokimi, 1-sektor rahbarining 2019-yil 20-iyul kuni "Qayrag'och" mahalla fuqarolar yig'inida navbatdagi sayyor qabuli bo'lib o'tdi.

Qabulda tuman hokimi o'rinbosarlari hamda tumandagi tashkilot rahbarlari qatnashdi.

Qabulda jami 11 nafar fuqarolar qatnashib, ular tomonidan 11 ta murojaatlar bildirilib bular:

Tomorqalarini sug'orishdagi muammolar yuzasidan, suyultirilgan gaz balon bilan ta'minlash, Transformator o'rnatish, imtiyozli kredit olish, tadbirkorlikni kengaytirish uchun joy, maktab oldida transport vositalari tezligini chekash, uy-joylari xujjatlarini tayyorlashga yordam, bolalar bog'chasi qurishga yordam berish va boshqa masalalarda murojaatlar kelib tushdi.

Qabul davomida tuman hokimi I.Novikovga fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida qonuniy hal bo'layotganligi hamda joylarda sayyor qabullar tashkillab, o'tkazayotganligi uchun o'z minnatdorchiliklarini bildirib o'tdilar

Qabuldagi murojaatlar yuzasidan tuman hokimi I.Novikov o'rinbosarlariga va tashkilot rahbarlariga tegishli chora tadbirlarni belgilab, murojaatlarni qisqa muddatlarda qonuniy xal qilish choralarini ko'rishliklari uchun topshiriqlarni berdi.







2019-07-20 14:22:47